

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**THE ROLE OF AGGLOMERATION PROCESSES IN POPULATION DEMOGRAPHY****Zakhra Mirzayeva***Lecturer**Academic Lyceum of Tashkent Medical Academy**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: agglomeration, collectivization, location of the population, Margunenko Canal, socio-demographic composition, national composition, deportation, state farm, territorial agglomeration, interethnic family.

Received: 21.02.25**Accepted:** 23.02.25**Published:** 25.02.25

Abstract: This article reveals the factors that played an important role in creating the locations of the population, such as, cases affecting the demographic situation of the population, ethnic processes in populated areas which formed as a result of agglomeration, problems of the social structure of the family, collective and state farms and industrial centers that arose in the XX century in the Tashkent region.

AHOLISI DEMOGRAFIYASIDA AGLOMERATSIYA JARAYONLARINING O'RNI**Zahra Mirzayeva***o'qituvchi**Toshkent tibbiyot akademiyasi Akademik litseyi**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: miksatsiya, aglomeratsiya, kollektivlashtirish, aholi manzilgohlari, Margunenko kanali, ijtimoiy-demografik tarkib, baynalminal oila, milliy tarkib, deportatsiya, sovxoz, hududiy aglomeratsiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada aholi manzilgohlarining tarkib topishida muhim rol o'ynagan omillar, aholining demografik holatiga ta'sir etuvchi holatlar, aglomeratsiya jarayoni natijasida shakllangan aholi manzilgohlaridagi etnik jarayonlar, oilaning ijtimoiy tarkibi masalalari XX asr Toshkent viloyatida paydo bo'lgan kolxozlar va sovxozlar hamda sanoat markazlari misolida yoritiladi.

РОЛЬ АГЛОМЕРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В ДЕМОГРАФИИ НАСЕЛЕНИЯ**Захра Мирзаева***преподаватель**Академический лицей при Ташкентской медицинской академии**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Смещение, агломерация, коллективизация, поселения, Маргуненковский канал, социально-демографический состав, интернациональная семья, национальный состав, депортация, территория агломерация.	Аннотация: В статье рассматриваются факторы, сыгравшие важную роль в составе населения поселений, обстоятельства, влияющие на демографическое положение населения, этнические процессы в поселениях, образовавшихся в результате агломерационного процесса, социальный состав семьи на примере колхозов, совхозов и промышленных центров, возникших на территории Ташкентской области в XX веке.
------------------------	---	---

Etnologiya fani sohasida atamalarning mazmunini tahlil qilish tadqiqot olib borishda ko‘plab ilmiy xulosalarni chiqarishga xizmat qiladi. Chunki, biror etnik jarayonga nisbatan qo‘llanilayotgan atama sodir bo‘layotgan voqeliklarning sabablarini, vositalarini hamda natijalarini ko‘rsatadi. Masalan, amerikaliklarga nisbatan “miksatsiya” (*lot. mixatio - aralashish*)[1] so‘zining qo‘llanilishi, ushbu hudud aholisining bir nechta etnoslarning qo‘shilishi natijasida shakllanganligini anglatadi. Miksatsiya jarayoni natijasida yangi bir millat – amerikaliklar nomi paydo bo‘ldi. Bu kabi yana ko‘plab misollarni keltirish mumkin.

Aglomeratsiya (*lot. agglomeratio – qo‘shaman, to‘playman*) jarayoni ma’lum bir hudud aholisining tarkib topishida o‘ziga xos xususiyatlarga egadir (ushbu atama mikrobiologiya, metallurgiya sohaslarida ham qo‘llanilib, ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘ziga xos ma’no kasb etadi. Masalan, mikrobiologiyada mikroorganizmlar to‘planishining shakllanishiga, metallurgiya sohasida esa mayda rudalar yoki zarralardan yirik metall parchalarining to‘planishiga aytiladi)[2]. Hududiy aglomeratsiyada shahar aholisining hududiy jihatdan tasniflash, intensiv xo‘jaliklarining tashkil etilishi va unda ishlovchi aholi punktlarini yaratish, kishilarning mehnat, madaniy aloqalarining yaqinligi asosida birlashtirish amalga oshiriladi.

Aglomeratsiya jarayonlarini tadqiq etishda sovet hokimiyatining respublikada ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohada amalga oshirgan o‘zgarishlarni tahlil qilish muhim hisoblanadi. Ma’lumki, sovet hukumati tomonidan XX asrning 20-yillaridan boshlab Turkiston o‘lkasida boshqaruvni va nazoratni mustahkamlash maqsadida barcha sohalarda o‘zgarishlar qilindi. Shulardan biri o‘lkaning tabiiy boyliklarini o‘zlashtirishning markaz manfaatlariga mos tartibini ishlab chiqish siyosati edi. Ungacha mahalliy mulkdorlarning xususiy mulki hisoblangan yerlar, endilikda davlat hisobiga o‘tkazilib, u yerlarda ko‘plab jamoa xo‘jaliklari (kolxoz) va sovet xo‘jaliklari (sovxoz) tashkil etila boshladi.

I.V.Stalinning 1929 yil 7 noyabrdagi “Buyuk burilish yili” maqolasi e’lon qilingandan so‘ng ommaviy jamoalashtirish avj oldirildi[3]. 1930 yil 1 fevralda Ittifoq Markaziy Ijroiya Komiteti (MIK) va Xalq Komissarlari Soveti (XKS) “Yoppasiga kollektivlashgan rayonlarda qishloq xo‘jaligini sotsialistik asosda qayta qurishni mustahkamlash va quloqlarga qarshi kurash tadbirlari to‘g‘risida”

qaror qabul qildi[4]. Bunda ko'pincha boy xo'jaliklarining yerlarini jamoa xo'jaliklariga o'tkazish va jamoa (davlat) nazoratiga topshirish kuzatildi. Paxta ekishni yanada kengaytirish uchun yangidan-yangi yerlarning o'zlashtirilishi oqibatida yirik ekin maydonlari paydo bo'ldiki, unga ishlov beruvchi ishchi kuchini ham yaratish muhim vazifaga aylandi. Shunday sharoitda hukumat tomonidan ochilgan yangi yerlarda ishlovchi aholini boshqa hududlardan ko'chirib olib kelish siyosati amalga oshirildi. Ushbu tadbirlar asnosida qishloqlarda davlat xisobiga o'tgan yerlarda ishchi kuchi yetishmasligi ma'lum bo'ladi. Uni hal qilish uchun aholini o'zlari yashab turgan joylaridan yangi tashkil etilgan jamoa xo'jaliklariga ko'chirish tadbiri qo'llaniladi. Sredazbyuro 1930 yil fevralidayoq yoppasiga kollektivlashtirilayotgan rayonlarda ikkinchi va uchinchi tofadagi quloq xo'jaliklarini zudlik bilan tugatish direktivasini ishlab chiqish lozimligini qayd etdi. Buning uchun "quloq posyolkalari" etishga uchastkalar belgilash, surgun qilinayotgan quloq xo'jaliklaridan maqsadli ishchi kuchi sifatida foydalanish masalasini ishlab chiqish, posyolkalarni ma'muriy boshqarishning maqsadga muvofiq shakli okrug ijroqo'mlari tomonidan tayinlanadigan vakillar hisoblandi. Quloq qilinadigan 300-400 oilani Ittifoqning chekka rayonlariga surgun qilish chorasini qo'llashga ruxsat berildi[5]. Sovet hukumati ushbu islohotlarni qattiqqo'llik bilan jadal olib boradi[6]. Oqibatda mamlakat bo'yicha 1929 yilning oxirlaridan 1930 yil o'rtalarigacha 32000 oila[7], O'rta Osiyoda esa 10035 ta oila[8] yashab turgan joylaridan o'zga yerlarga ko'chirildi. 1933 yilga qadar jami 5,5 ming oila O'zbekiston SSRdan tashqariga[9], o'z navbatida boshqa o'lkalardan respublika hududiga va respublikaning viloyatlariaro aholi ko'chirilishi siyosati olib boriladi. Aholini ko'chirish tadbirlari viloyatlar ichidagina emas butun sobiq ittifoq miqyosida ham amalga oshiriladi. Bu jarayon XX asrning 2-yarmida ham davom etib, natijada respublikada ko'plab yangi-yangi aholi manzilgohlari paydo bo'li. Bunga Mirzacho'lning o'zlashtirilishi natijasida Sirdaryo viloyatining tashkil etilishini misol qilish mumkin.

O'tgan asrning 20-30- yillarida Toshkent viloyatida ham bu kabi aholi manzilgohlarining vujudga kelganligini ta'kidlash muhimdir. Viloyatda kolxoz va sovxozlarning tashkil etilishi, ko'plab sanoat korxonalarning qurilib, ishchilar shaharchalarining barpo qilinishi hamda ularga aholining ko'chirib keltirilishi Toshkent viloyatining XX asrdagi etnodemografik holatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Xujjatlarga nazar tashlanadigan bo'lsa, Ministrlar Sovetining viloyatlararo aholini ko'chirish bo'yicha 1948 yil martdagi №386- sonli qaroriga ko'ra Toshkent viloyati miqyosida 1948 yilda 3800 nafar kishi ko'chirilishi kerak edi. Amalda 4021 nafar aholi ko'chirildi[10]. Shu yillar davomida viloyatning ayrim tumanlarida Beshkapa, Qirqkapa, Paxtakon, Oltio'vul, Tortio'vul (To'rtovul), Segizboev, Qozoqovul kabi koloxoz va sovxozlar tashkil etilib, bu nomdagi joy nomlari aynan, XX asrning 20-30 yillaridan boshlab tilga olinadi. Demak, bu qo'rg'on va qishloqlar hududlariga aholining shu davrdan kelib joylashganligidan darak beradi. Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida 1928 yili Margunenkov (Xonariq) kanali qaziladi. O'zlashtirilgan yangi yerlarga Farg'ona,

Samarqand viloyatlaridan, Jizzax viloyati Zomin tumanidan o'zbeklarning turk urug'lari ko'chirib kelinadi. Hozirda bu hududda o'zbeklardan tashqari qozoqlar, turkmanlar va tojiklar istiqomat qiladi[11]. Ko'rinib turibdiki, ushbu jarayonlar viloyat aholisining demografik o'sishigagina sabab bo'lmay, balki, milliy tarkibining ko'payishiga ham xizmat qilgan. Yillar o'tib, kelgusi avlodda viloyatning qaysidir tumani aholisi ekanligi haqidagi ongning ustunlik qilishi, ular o'zlarini "bo'kalik", "pskentlik" va shu kabi nomlar bilan atay boshlashlari, aglomeratsiya jarayonlarining viloyat tumanlari aholisining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rsatadi.

Aholining son jihatdan o'sishi, milliy tarkibining ortib borishi oilalarning ijtimoiy-demografik tarkibini ham o'zgartirib bordi. Oilaning ijtimoiy-demografik tarkibi deganda, oilaning, unda yashab kelayotgan kishilarning nikoh, qondoshlik-qarindoshlik munosabatlari, ijtimoiy guruhlar va miqdori asosida turlarga bo'linishi tushiniladi[12]. Dala tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, viloyatning qishloq tumanlarida asosan, oddiy oila turi keng tarqalgan. Ya'ni, aksariyat oilalar ota-ona va farzandlar, bobo-buvilari birgalikda yashashlari kuzatiladi. Qolaversa, etnologiyada "katta oila", "bir qozon" [13] deb ataluvchi murakkab oilalar ham mavjud bo'lgan. Bunday oilalarda ota-onalari, qarindosh-urug'lari bilan birga yashaganlar. Ko'pincha bunday oilalarning paydo bo'lishiga oila a'zolari miqdorining o'sib borishi, uy-joy muammolarining kelib chiqishi sabab bo'lgan. Ma'lumki, uzoq yillar maboynida tomorqa uchun yerlari ajratilmagan. Natijada, ota-ona o'zining bir necha farzandlarining oilalari bilan bir hovlida yashashlariga majbur bo'lgan. Ayniqsa, bu hol shahar aholisi orasida juda sezilarli bo'lgan. Toshkent viloyatida ayrim tuman markazlari hamda shaharlarda ham bunga guvoh bo'lish mumkin. Angren, Olmaliq, Bekobod, Yangiyo'l kabi shaharlarda aholining viloyatning qolgan qismiga nisbatan zichligi yuqoriligi kuzatiladi. Etnodemografik tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu hudud aholisi orasida oilalarning milliy tarkibi, ijtimoiy-demografik tarkibida xilma-xilligi yuqori bo'lgan. Buni viloyatda sanoatlashgan tumanlarning va ko'pmillatli aholi manzillarining ko'pligi bilan izohlash mumkin. Ma'lumki, Toshkent viloyati respublikaning sanoatlashgan hududlaridan biridir. Shuning uchun XX asrning oxirlarida viloyat aholisining 50,2 foizini o'zbeklar tashkil etgan[14]. Negaki, o'zbek oilalarining asosiy mashg'uloti qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan. Viloyatning sanoat markazlarida mahalliy bo'lmagan millat vakillarining ko'plab istiqomat qilishi aholi orasida ularning salmog'ini yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan. Bu esa o'z navbatida Toshkent viloyati aholisi orasida bayналminal oilalarning keng tarqalishini ta'minlagan. Masalan, 1970 yilda Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanining o'zida o'zbek va koreyslar o'rtasida 46 ta nikoh qayd etilgan[15].

Aholi sonining ko'payishi bir necha omillar bilan amalga oshadi. Shulardan eng ko'p tarqalgani, tug'ilish bilan kechadigan jarayonlardir. O'rta Osiyoning mahalliy millat vakillari orasida farzand ko'rishning yuqoriligini hisobga oladigan bo'lsak, aholining miqdoriy o'sishi qishloq joylarida asosan serfarzand oilalarning hisobiga ro'y berganligi qayd etish mumkin. Tadqiqotlar

baynalminal oilalarda farzand ko‘rishning salmog‘i yuqori bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Bu xususiyat butun respublika miqyosida ham mos keladi. XX asrning so‘nggida ToshDU (O‘zMU) Aholishunoslik laboratoriyasi xodimlari tomonidan o‘tkazilgan ijtimoiy-demografik tadqiqotlarida quyidagi ma‘lumotlar keltiriladi. Shaharda yashovchi baynalminal oilalarida farzandning ko‘rishning miqdori o‘rtacha o‘zbek-qoraqalpoq – 4,1; o‘zbek-qozoq – 5,0; o‘zbek-tojik – 4,5; o‘zbek-tatar – 3,8; o‘zbek-rus – 2,7; rus-tatar – 2,8; qozoq-tatar – 3,5 va hokazo. Qishloq joylarida esa bu ko‘rsatkich o‘zbek-qoraqalpoq – 5,3; o‘zbek-qozoq – 5,6; o‘zbek-tojik – 5,8; o‘zbek-tatar – 3,8; o‘zbek-rus – 3,5; rus-tatar – 3,1; qozoq-tatar – 3,6 ni tashkil etadi[16].

Mahalliy millat vakillaridan iborat bo‘lgan va Yevropa millatiga mansub oilalardagi farzandlar sonining farqli bo‘lishiga ularning mintaliteti hamda diniy e‘tiqodlari ham sabab bo‘ladi. Viloyat aholisi o‘rtasida farzand ko‘rishga nisbatan munosabati so‘ralganda, serfarzand bo‘lishning afzalliklari, farzand ko‘rish faqatgina kishining hohish istagi bilan amalga oshmasligini ta‘kidlashib, “jonni bergan rizqini ham beradi”, “o‘nta bo‘lsa o‘rni boshqa qirqa bo‘lsa qilg‘i” kabi naqlar bejizga paydo bo‘lmaganligini aytishdi[17]. Musulmonchilikda oila qurish, farzand ko‘rish har bir insonning burchi deb qaralgan. Muqaddas kitob – Qur‘oni Karimda oila qurish, farzand ko‘rishning afzalliklari, oilaviy munosabatdagi amal qilinishi lozim bo‘lgan tartib qoidalar batafsil bayon etilgan[18]. Endi farzand ko‘rishga shahar aholisi yoki O‘rta Osiyolik bo‘lmagan millat vakillarining munosabati o‘rganiladigan bo‘lsa, qishloq aholisiga nisbatan ularda, bola ko‘rish aniq hisob-kitoblarga asoslanishi, farzandning iqtisodiy ta‘minotini rejalashtirish, uy-joy masalalari inobatga olingan holda yondashilsa, maqsadga muvofiq bo‘lishi aytiladi. Ko‘rinib turibdiki, turli ijtimoiy holatdagi kishilarning farzand ko‘rishga bo‘lgan munosabati bir-birlaridan farqli bo‘lib, bu esa o‘z navbatida qishloq va shaharlardagi aholi soni o‘shining xususiyatlari bir xilda bo‘lmaganligini ko‘rsatadi.

Xullas, aglomeratsiya jarayonlari natijasida Toshkent viloyati aholisining XX asrdagi etnodemografik holati, birinchi navbatda miqdoriy o‘shishi bilan, ikkinchidan, milliy tarkibning boyib borishi hamda turli ijtimoiy-demografik tarkibning shakllanganligi bilan xarakterlanadi.

Shahar aholisining miqdoriy o‘shishi asosan, tashkil etilgan yangi-yangi sanoat korxonalarda ishlash, oliy o‘quv yurtlarida o‘qish uchun aholining ichki va tashqi migratsiyasi va shu kabi omillar hisobiga amalga oshgan bo‘lsa, qishloq joylarda esa, paydo bo‘lgan kolxoz va sovxozlarga aholining ko‘chirilishi, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi serfarzand oilalarning ko‘payib borishi natijasida sodir bo‘ldi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. <http://www.biometrika.tomsk.ru/ftp/dict/gumilev/etnos2.htm>.
2. <https://ru.wikipedia.org/>.
3. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2005. 347-bet.

4. Berxin I.B. SSSR tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1983. 321-bet.
5. Rasulov B. O'zbekistonda kollektivlashtirish jarayonidagi siyosiy qatag'onlar va surgun qilingan dehqonlar ahvoli (1929-1959 yillar). –Toshkent: Sharq, 258-bet.
6. Kojinov V. Pravda stalinskix repressiy. –Moskva: Algoritm; Eksmo, 2006. –S.89.
7. Reabilitatsiya: Politicheskie protsessy 30-50-x godov / Pod. obщ. red. Yakovleva A.N. – Moskva: Politizdat, 1991. –S.9.
8. Tragediya sredaziatskogo kishlaka: kollektivizatsiya, raskulachivanie, ssylka, 1929-1955 gg. Dokumenty i materialy. T.1. / Sost: Shamsutdinov R., Rasulov B.: Pod. red. Alimovoy D. –Toshkent: Sharq, 2006. –S.13.
9. Alimova D.A. Tarix shohidligi va saboqlari. –Toshkent: Sharq, 2001. 86-bet.
10. Toshkent viloyati davlat arxivi. 658-fond, 1-ro'yxat, 8-yig'ma jild, 3-4-varaq.
11. Botirov T. Oqqo'rg'on tumani 70 yoshda. –T, 2005. 156-bet.
12. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. –Toshkent: Universitet, 1997. 45-bet.
13. Uzbeki. Otv. red. S.N. Abashin, D.A. Alimova, Z.X. Arifxanova. –Moskva: Nauka, 2011. –S.343.
14. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. –Toshkent: Universitet, 1997. 35-bet.
15. O'zRMDA. 1619-fond, 11-ro'yxat, 408-yig'ma jild, jadval.
16. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. –Toshkent: Universitet, 1997. 44-45-betlar.
17. Oqbo'taev U. Dala tadqiqotlari. 2017 yil dekabr.
18. Qur'oni Karim. Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasi va tafsiri. Baqara, Niso, Moida, Nur, Rum, Ahzob, Mujodala, Mumtahana, Taloq, Tahrim suralari. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2009.